



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi

fjsti.uz
@ferghana_medical_institute
@farjsti

29-
iyun
2022-yil
Chorshanba

№6 (10)

Oq yo'l sizga, bitiruvchilar!



Shifokorlar. Hayotimiz va salomatligimiz yo'lida o'z huzur-halovatidan kechib xizmat qiladigan bu sharaflı kasb egalarini har qancha e'tirof etsak arziydi. Ayniqsa, bugungi pandemiya davrida tunu-kun mehnat qilib, kasallikka qarshi kurashishda jasorat ko'rsatayotgan, bemorlarning salomatliklari yo'lida ko'rsatayotgan fidoyiliklari taqsimga sazovordir.

Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomli viloyat teatr va konsert saroyida institutni tamomlab, tibbiyot maskanlarida ish boshlagan shifokorlarga tantanali diplom topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Dillarga bayramona kayfiyat ulashuvchi kuy-qo'shiqlar esa tadbirning ko'tarinki ruhda o'tishiga zamin yaratdi. Oliygo'h "Nastarin" jamoasining teatrlashtirilgan sahna ko'rinishlari hamda konsert dasturi bilan yanada fayzli bo'ldi.


Bitiruv marosimida institut rektori boshchiligidagi vakillar, talabalar OAV xodimlari va bitiruvchilarning oila a'zolari

ishtirok etdi.

— Umid qilamizki, 101 nafar yangi kadrlar kelajakda nafaqat O'zbekistondagi, balki butun jahon tibbiyot sohasini rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. — deydi oliygo'h rektori Akmal Sidikov. — Boisi o'tgan o'quv yillari mobaynida talabalardagi bilimga chanqoqlik va yangilikka intiluvchanlikni sezdim va bundan quvondim. Bu kelajakda yanada ko'p va yetuk mutaxassislar yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Mazkur nufuzli o'quv dargohning bitiruvchilari faxru iftixorga to'lish bilan birga mas'uliyat ham yuklaydi. Ular bu yo'lda astoydil mehnat qilishga va yaxshi natijalar ko'rsatishga ishonaman.


Tadbir davomida bitiruvchi talaba-yoshlar va institut rahbariyati, pedagoglar jamoasi ishtirokida tantanali qasamyod qabul qilindi.

I.ABDUJABBOROV.



Batafsil 4-betda

"NASTARIN" SOVRINDORLAR QATORIDA



Oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlari o'rtasida an'anaviy o'tkazib kelinayotgan "Yilning eng faol talabalar teatr studiyasi" respublika tanlovining 2022-yilgi mavsum final bellashuvlari bo'lib o'tdi. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida o'tkazilgan tanlovda barcha davlat oliy ta'lim muassasalarining teatr studiyalari faol ishtirok etdi.

Batafsil 2-betda

"NASTARIN"

sovrindorlar qatorida

Tanlovning final bosqichida 10 ta teatr studiyasining jami 300 nafar talabarlari faol ishtirok etib, ular tomonidan tayyorlangan sahna asarlari mahorat bilan ijro etildi.



Davomi. Boshi 1-betda.

Tadbirida ishtirok etgan Oliy va o'rta axsus ta'lim vaziri A.Toshqulov ishtirokchilarga omad tiladi.

Farg'onalik talabalar ishtirokida rejissyor Azima Yo'ldova tomonidan, Chingiz Aytmatovning Qiyomat asari asosida sahnalashtirilgan «KUNDA» spektakli tomoshabinlar olqishi va e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Nihoyat tanlovning eng hayajonli daqiqalari – g'olib va sovrindorlar nomi e'lon qilish boshlandi.

"Yilning eng faol talabalar teatr studiyasi – 2022" respublika final bosqichida 1-o'rin Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Mehr" va Farg'ona politexnika institutining "Qir guli" talabalar teatr studiyalariga nasib etdi.

2-o'rinni Toshkent tibbiyot

akademiyasining "Darmon" hamda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining "Nastarin" talabalar teatr studiyalari, 3-o'rinni Buxoro davlat universitetining "Buxoriy" va Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Nihol" jamoalari egalladi.

"Yilning eng faol talabalar teatr studiyasi" tanlovi ishtirokchilari pul mukofotlari, maxsus diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Ma'lumki, "Nastarin" talabalar teatr jamoasi respublika miqyosida o'tkazilayotgan mazkur festivalda har yili sovrindorlar qatorida bo'ladi. O'tgan yili ham "To'maris" nomli sahna asari bilan faxrli birinchi o'rinni egallagan edi.

Aytib o'tish joizki, 5 yildan buyon g'oliblik shohsupasini qo'ldan boy bermay kelayotgan talabalar haqiqiy iste'dod sohibi ekanliklarini yana bir bor isbotlab berdilar.



– Bu yilgi festivalga ko'plab talabalar astoydil muvaffaqiyat qozonish uchun harakat qildi, – deydi jamoa rahbari Dilshoda Haydarova. — Biz uchun ham juda qiyin kechdi. Ammo yakunda bizning talabalar o'zlarini ko'rsatishdi va g'oliblar safida bo'lishdi. Bizni qo'llab-quvaatlagan institut rahbariyati, tashkilotchilarga o'z minnatdorchiligimizni bildirib qolamiz. Keyingi tanlovlarda ham yuqori o'rinlarni egallash uchun astoydil mehnat qilamiz.



HAMKORLIK ALOQALARI YANADA KENGAYMOQDA

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti hamda Akademik Y.X.To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi.

Oliyoghimizga tibbiyot markazi delegatsiyasining tashrifi davrida markaz va institutning "Oila shifokorlari", magistrantlar va klinik ordinatorlar yo'nalishi talabalar uchun diabet va qandli diabetning tarqalishi va oldini olish muammolari, jahon tendensiyalari, O'zbekiston Respublikasida yod

tanqisligi muammosi bo'yicha ma'ruzalar tinglandi. Delegatsiya a'zolari kutubxona, laboratoriyalar, o'quv xonalari va o'quv binosi binolarini ko'zdan kechirishdi. O'quv jarayoniga zamonaviy yondashuv USMLE United States Medical License Examination o'quv dasturi tadbiri etilganligi, o'quv kursining kredit-moduli o'quv jarayoni tamoyili asosida to'liq jihozlanganligi qayd etildi. Qo'shma muloqotda yosh yetakchining yuksak ilmiy salohiyati va ochiqqligi baholandi.

Shuningdek, Turkiyaning Egey Universiteti vakili Adnan Yuksel Guruz institutga tashrif buyurdi.


Taniqli tadqiqotchi olim talabalar bilan uchrashib, ular bilan mashg'ulotlar o'tkazdi.

Yakunda hamkorlikda tajriba almashish, akademik mobillikni yo'lga qo'yish maqsadida oliy ta'lim muassasalari o'rtasida memorandum imzolandi.

M.DEHQONOVA, jurnalist.

Xushxabar!

YANGI TADQIQOTCHILAR



Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining mustaqil tadqiqotchisi **Munira Kadirova** "Tibbiy ta'lim jarayonida kasbiy kompetentlikni metodik takomillashtirish texnologiyalari (tibbiyotda pedagogikani o'qitish misolida)" mavzusida ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Dissertatsiya bo'lajak shifokorlarni pedagogik faoliyatga tayyorlash masalalariga qaratilgan bo'lib, tibbiy ta'lim sohasiga

zamonaviy yondashuvlar, fanlararo integratsiyani yo'lga qo'yish tadqiq etilgan.



Shuningdek, institutning 2-ichki kasalliklar kafedrasida assistenti **Alfiya Muradimova** «Qon tomir demensiya patogenezi klinik-nevrotrofik omillari» mavzusida 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligidagi tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasini ilmiy jamoatchilik oldida yoqladi.

Ularni muvaffaqiyatlari bilan tabriklab, kelgusi ishlariga omad va zafarlar yor bo'lishini tilaymiz.

“SOG‘LOM HAYOT” SAHIFASI

USHBU SONDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI BOSH
MUTAXASSISLARI SAHIFAMIZ MEHMONI

ISSIQ KUNLARDA QANDAY TAOMLANGAN MA‘QUL?

Yoz faslida ovqatlanish tartibini biroz o‘zgartirish lozim. Nonushta soat 7:00 da qilinishi, unda oqsil, yog‘ va uglevodlar oddiy kunlardagidan nisbatan ko‘paytirilishi kerak. Masalan: sut mahsulotlari (tvorog, qaymoq, sutli choy), meva, sabzavot, suvda pishirilgan go‘sht va shunga o‘xshash mahsulotlar iste‘mol qilsa bo‘ladi.

Tushlikda yengil hazm bo‘ladigan birinchi taom, ya‘ni moshxo‘rda, mastava, manpar, suvda yoki bug‘da tayyorlangan kotletlardan iborat bo‘lsa yaxshi bo‘lardi. Dasturxonimizda albatta

sabzavot va mevalar, ulardan tayyorlangan salatlar, bodring, pomidor, piyoz, ko‘k piyoz, ko‘katlar bo‘lishi kerak. Ho‘l mevalardan tayyorlangan sharbatlar tarkibida esa shakar imkon qadar umuman bo‘lmasligi lozim. Yozning issiq kunlarida sho‘r baliq, dudlangan go‘sht, konserva, tuzli mahsulotlarni iste‘mol qilish umuman tavsiya etilmaydi, chunki ular chanchash holatini yanada kuchaytiradi.

Kechki ovqatdagi taomlar ham juda yengil hazm bo‘ladigan suyuq ovqatlardan iborat bo‘lishi kerak. Buning uchun qatiq, kefir, olma, turli

sabzavotlar va shunga o‘xshash uglevodlarga boy bo‘lmagan mahsulotlarni iste‘mol qilish maqsadga muvofiq. Sevimli mahsulotlarimiz bo‘lmish qovun va tarvuzni esa tushlik vaqtida iste‘mol qilinsa yaxshi bo‘ladi, ular uglevodlarga boy, quvvat beradi va, ayniqsa, tarvuz chanchoqni bosadi.



Guli Shayxova,
professor.

DIAREYA qanday kasallik?

Ichburug‘ (diareya) xalq orasida ich og‘rig‘i, ich ketishi nomlari bilan ataladigan xastalik bo‘lib, ichak yo‘llarining funksional buzilishi hisoblanadi. Ichaklarni bo‘shatish va ichning suyuq holatda kelishi bilan kechadi. Ichning kuniga 3 marotabadan ortiq kelganda diareya deyiladi.

Uning 2 ta turi bor. Bular infeksiyon va noinfeksiyon turlari hisoblanadi. Ko‘pgina hollarda ichburug‘ ovqatdan zaharlanish, shuningdek, xatarli patologiyalar, misol uchun, surunkali gepatit, pankreatit va boshqa infeksiyon-yallig‘lanish kasalliklarining alomati bo‘lishi mumkin.

— Asosiy belgilari va kelib chiqish sabablari qanday?

— Bo‘sh, suvli ahlat kelishi, unda qon bo‘lishi, qorin talvasalari, ya‘ni g‘urillashi, og‘rig‘i, dam bo‘lishi, yuqori harorat, ko‘ngil aynishi kabilar kasallikning asosiy simptom va belgilari hisoblanadi.

Diareyaga sabab bo‘luvchi ko‘plab omillar bor. Masalan, Norwalk virusi (ichakning nobakterial kasalliklari keltirib chiqaruvchi), sitomegaloviruslar va gepatit viruslari ich ketishiga sabab bo‘ladi. Xususan, rotoviruslar bolalarda o‘tkir diareya kuzatilishiga olib keladi.

Shuningdek, bakteriya va parazitlar diareyaga olib keladi. Ular zararlangan ovqat yoki suv bakteriya va parazitlarning odam organizmiga kirishiga yo‘l bo‘ladi.

Bundan tashqari, ayrim dori vositalari hamda sut va sut mahsulotlarida uchraydigan laktoza, tabiiy meva, asalda bo‘ladigan va ayrim ichimliklarga qo‘shiladigan fruktoza uglevodlari iste‘mol qilish ham ayrim kishilarda ich ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.



Muhayyo ASILOVA,
Respublika virusologiya
ilmiy tekshirish instituti
klinikasi bosh shifokori.



Doniyor Alimov,
Respublika
shoshilinch tibbiy
yordam ilmiy
markazi direktori.

JAZIRAMADAN QANDAY HIMOYALANISH KERAK?



Oftob urgan odamga bir necha kun dam olish tavsiya etiladi. Bu asab, qon aylanish tizimi va boshqa bir qator buzilgan biokimyoviy reaksiyalar tiklanishi uchun juda zarur!

Oftob tig‘i ostida qolish qator xavfli asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, inson terisining kuyishi yoki bosh miya faoliyati buzilishi kuzatiladi. Oqibatda tomirlar kengayib, tanada qon aylanish jarayoni sekinlashadi.

Issiq urishi bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, holsizlik kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi. Namlik darajasi yuqori atmosferada esa ushbu alomatlar yanada kuchayishi mumkin.

Masalan, yurak urishi va nafas olish tezlashishi, ko‘z qorachig‘i kengayishi, qusish, kuchli bosh og‘rig‘i, quloq bitishi, chayqalib yurish kuzatiladi. Vaqti-vaqti bilan hushdan ketish, burundan qon kelishi, tana harorati 39-40 darajagacha ko‘tarilishi ham shunday simptomlar sirasidan.

Og‘ir holatlarda esa yuzlar qizarib, keyin oq va ko‘kimtir tusga kiradi, mushaklar tortishadi. Bemorda alahsirash boshlanadi.

Tana harorati 41-42 darajagacha yuqorilab, chuqur behushlik holati rivojlanadi.

Semizlik, gipertoniya, yurak tug‘ma nuqsonlari, endokrin kasalliklaridan aziyat chekuvchilar uchun jazirama oftobi, ayniqsa xavfli. Qolaversa, yangi tug‘ilgan chaqaloqlar, keksa yoshli insonlar, kashandalar, stress holatidagi kishilarda quyosh urishi alomatlari kuchayib ketishi mumkin.

Bunday ob-havo sharoitida vaqti-vaqti bilan badanni sovuq suvda namlangan sochiq yoki dastro‘mol bilan artib turish, ochiq joyda ishlaganda ora-orada salqin joyda dam olish jazirama taftidan asraydi.

Yengil, havo o‘tkazadigan paxta va kanop tolasidan to‘qilgan, tanadagi terning chiqib ketishiga to‘sqinlik qilmaydigan kiyimlar kiyish kerak. Oftobdan saqlanishda turli krem hamda maxsus kosmetik vositalar qo‘l keladi.



Oliyog'ha amalga oshirilayotgan barcha islohotlar zahirida sohani zamon talablari darajasiga chiqarishdek ulug' maqsad mujassam. Maskanda raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, institutning ko'plab xorijiy davlatlar bilan yaqin hamkorligi, o'rnatilgan do'stlik rishtalari yil sayin mustahkamlanib bormoqda. Ana shunday sa'y-harakatlar samarasi o'laroq institutning 11 nafar mutaxassislar malaka oshirish maqsadida Hindiston davlatidagi "Venkateshwar Hospital" da bo'ldilar. Dastlabki kundanoq talabalar o'z yo'nalishlariga ko'ra, bo'limlarda faoliyat yurituvchi malakali mutaxassislariga biriktirildi.

"Venkateshwar Hospital" binosining o'ziga xos tuzilish strukturasi talabalarda katta qiziqish uyg'otdi. Uch qavatli yer osti inshooti sterilizatsiya, laboratoriya, administrativ bo'limlar joylashgan. Asosiy binodan tashqari o'quv maydoni, mashinalar turar joylarida barcha zarur sharoitlar yaratilgan. 10 qavatli binoda esa tibbiyotga doir deyarli hamma bo'limlar mavjud. Bino maxsus havo aylanish tizimiga ega.

Birgina jarrohlik bo'limida barcha qulayliklarga ega 12 ta maxsus xonalar mavjud. Ularning ikkitasi buyrak va jigar transplantatsiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan. Intensiv davolanish bo'limlarida noodatiy joylashuv ya'ni katta zalning o'rtasida hamshira va shifokorlarning ishlash uchun maxsus joyi bo'lib, atrofida aylanisiga bemorlar o'rin joylari mavjud. Bu esa tibbiyot xodimlarining bir birlariga xalaqit qilmasligini ta'minlay oladi. Eng qiziqi bu yerda shifokorlar kasallik tarixi to'ldirib emas, asosiy vaqtini bemorning dinamikada o'zgarishini kuzatish va

kerakli choralarni vaqtida ko'rishlari bilan o'tkazishadi. Bemor haqidagi hamma ma'lumotlar klinik, instrumental va laborator tahlillar natijalari elektron tarzda yuritiladi va shu bemor ID raqamiga kasallik tarixi sifatida saqlanib boriladi.

—Shu qisqa vaqt ichida menga biriktirilgan interverson kardiolog Dr. Ritesh Sanguri bilan ko'plab murakkab kasalliklarni davolash jarayoniga guvoh bo'ldim. Shuningdek, koronar arteriyalarni shuntlash amaliyotida qatnashdim. E'tiborimni tortgan yana bir hodisa — bu o'rta tibbiyot xodimlarining kuchli bilimiga va klinik fikrlash qobiliyatiga ega ekanliklari bo'ldi. Tibbiyot muhandislari o'zlari shifokor ishtirokisiz ExoKG tekshiruvini mustaqil bajarishar va shifokorga faqatgina tekshiruv natijasiga ko'ra, xulosa berish qolar ekan. Dobutaminli ExoKG stress testi men uchun yangilik bo'ldi.

Bundan tashqari o'z qiziqishim sabab surunkali og'riqlarni davolovchi (Pain management) kasb egasi algolog Dr. Aanchal Sharma bilan birgalikda ultratovush yordamida yuqori aniqlikka ega bo'lgan davolovchi blokadalarni o'rgandim va Vatanimga qaytgach, ushbu yo'nalishni rivojlantirishni maqsad qildim. Ayniqsa, bu yo'nalish ko'plab og'riqdan aziyat chekib, narkotik analgetiklar bilan davolanayotgan onkologik bemorlarning og'riqlarini mahalliy qoldirishda qo'llanilishi menga qiziq tuyuldi.

Institutning Venkateshwar Hospitalida bo'lgan barcha mutaxassislar o'z yo'nalishlari bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashdidesam mubolag'a bo'lmaydi.

Shohrux AXMADALIEV,
institut o'qituvchisi.
Hindiston. Dehli.



E'tirof

Mukofotlar muborak bo'lsin, Obidjon!

Iyun oyi Obidjonga omadli keldi. Sababi, bu oyda u turli tadbir va musobaqalarda muvaffaqiyatlarga erishib, e'tiroflarga sazovor bo'ldi.

"Best publication" ilmiy-tadqiqotlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash markazi tomonidan "Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun" xalqaro tanloving taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



«Iqtidorli 3-kurs talabamiz Obidjon Ibragimov juda iqtidorli oquvchi. Yoshligidan sport bilan shug'ullanib keladi va ko'plab muvaffaqiyatlarga erishgan. Hozir esa u yosh olim sifatida izlanishlar olib bormoqda. Kelajakka aniq maqsadlar qo'ygan. Tengdoshlari undan o'rnak olsa arziydi»

Akmal SIDIKOV,
institut rektori.

Toshkent Davlat Agrar universiteti katta majlislar zalida o'tkazilgan mazkur tanlovda o'zining ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan vatanimizning xalqaro maydondagi obro' sini oshirishga munosib hissa qo'shayotgan, yurtimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan, bakalavr hamda magistratura bosqichida tahsil olayotgan 458 nafar yoshlarmiz maxsus ko'krak nishoni hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Jumladan, institutimiz davolash ishi yo'nalishi 3-bosqich 33-guruh talabasi Obidjon Ibragimov "Ilm-fan sohasidagi xizmatlari uchun" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Shuningdek, u O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining kubogi uchun mahallarda bo'lib o'tgan sportning milliy kurash turi bo'yicha qatnashib, **66 kg.gacha vazn toifasida faxrli 3-o'rinni egalladi** hamda Farg'ona viloyat Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni tomonidan diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Yaqinda Qozog'iston Respublikasida erkin kurash bo'yicha o'smirlar va yoshlar o'rtasida o'tkazilgan **XVIII-ochiq respublika chempionatida 61 kg. vazn toifasida II-o'ringa sazovor bo'ldi.**

—Qozog'iston Respublikasida bo'lib o'tgan chempionatda meni qo'llab-quvvatlab turgan ustozlarim Murodjon Ashurov, Akmal Sidikov, Elmurod Abdullayev, Baxtiyor Turg'unpo'latovlarga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

JAMOAT SALOMATLIGI

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6-sentabr 2021-yil №12-132
raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOROV
Qo'g'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmioz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «ZAKOVAT NASHRIYOT UYI» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.

BOSMAXONA MANZILI:
Kosonsoy shahri, Chorbog' ko'chasi, 17-uy.
Bosmaxonaga 28.06.2022 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17:00

Buyurtma:

Adadi: 1000